“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=283

2025-yil
1-son
aprel



Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tadbirlarini takomillashtirish hamda sun’iy intellektni joriy etish masalalari

Shohjahon Jumayev,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
tayanch doktoranti (PhD
e-mail: jumayev@gmail.com

Аннотация. Prokuratura sohasini tubdan isloh etish, bu borada ochiqlik va adolatga asoslangan, fuqarolar va jamiyat manfaatiga xizmat qiladigan, xalqparvar qarorlar qabul qilish, nazariy va amaliy maktabiga, fidoyi va professional xodimlar korpusiga ega bo‘lgan tizimni shakllantirish bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “El-yurtimizning Konstitutsiyamizda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishda, qonuniylikni ta’minlash, jinoyatchilikning oldini olishda prokuratura organlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Калит сўзлар. prokuratura, qonunlar ijrosi, sun’iy intellekt

Аннотация. Осуществляется масштабная работа по коренному реформированию сферы прокуратуры, формированию системы, основанной на открытости и справедливости, служащей интересам граждан и общества, имеющей теоретическую и практическую школу принятия решений, корпус самоотверженных и профессиональных работников.Как отметил Президент Узбекистана Шавкат Мирзиёев, "Роль органов прокуратуры в надежной защите прав и свобод нашего народа, закрепленных в Конституции, обеспечении законности и предотвращении преступности постоянно растет.

Ключевые слова. прокуратура, исполнение законов, искусственный интеллект

Annotation. Large-scale work is being carried out to fundamentally reform the prosecutor's office, to form a system based on openness and justice, serving the interests of citizens and society, making people-oriented decisions, having a theoretical and practical school, a corps of dedicated and professional employees.As the President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev noted, "The role of the prosecutor's office in reliably protecting the rights and freedoms of our people enshrined in the Constitution, ensuring legality, and preventing crime is constantly growing.

Keywords. prosecutor's office, law enforcement, artificial intelligence

Prokuratura sohasini tubdan isloh etish, bu borada ochiqlik va adolatga asoslangan, fuqarolar va jamiyat manfaatiga xizmat qiladigan, xalqparvar qarorlar qabul qilish, nazariy va amaliy maktabiga, fidoyi va professional xodimlar korpusiga ega bo‘lgan tizimni shakllantirish bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “El-yurtimizning Konstitutsiyamizda mustahkamlangan huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishda, qonuniylikni ta’minlash, jinoyatchilikning oldini olishda prokuratura organlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda”.

Shuningdek, O‘zbekiston Bosh prokurori N. Yo‘ldoshev ham joriy yil 19-mart kuni mamlakatimiz aholisiga qilgan murojaatida “Har bir tekshiruv hamda tergov ishi prokurorlarning kundalik va qat’iy nazoratida bo‘ladi. Tekshiruv va tergov harakatlarining har tomonlama, to‘liq, eng asosiysi, xolis va qonuniy o‘tkazilishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratiladi”, deb ta’kidlab o‘tdi.

Dastavval, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati hamda prokuror tekshiruvi borasidagi huquqshunos olimlarning ilmiy-nazariy fikrlari tahliliga to‘xtalib o‘tsak. Yuridik adabiyotlarda qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlariga doir turlicha fikrlar bildirilgan. Xususan, huquqshunos olim B. Po‘latov “Qonunlar ijrosi ustidan nazorat tartibida o‘tkaziladigan tekshiruv prokuratura organlari faoliyatining strategiyasini aks ettiradi. Hozirgi vaqtda ularning tematikasi xilma-xildir. Ular qatoriga fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi to‘g‘risidagi, mulkchilik to‘g‘risidagi, tadbirkorlik faoliyati, xususiylashtirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, soliq, bank, bojxona, yerga doir va boshqa qonunlarning ijrosi ustidan nazorat kiradi”, deb ta’kidlaydi. O. Madaliyev esa “Qonunlar ijrosini tekshirishning asosiy omili sifatida tekshiruvlarning aniq va yuqori saviyada rejalashtirilishini olish mumkin. Boshqaruv idoralari, mahalliy hokimiyatlar, nazorat idoralari, mansabdor shaxslarning fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlarini poymol etuvchi noqonuniy huquqiy aktlarini aniqlash va ularga protest keltirish masalasini hal etish umumiy nazorat faoliyatining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi” deydi. A. Komilov “Qonunlar ijrosi yuzasidan prokuror tekshiruvining bosh maqsadi qonun ustuvorligini ta’minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir”, deb ta’kidlagan.

Yuridik adabiyotlarda prokuror nazoratiga ham batafsil ilmiy-nazariy ta’riflar berilganini ko‘rish mumkin. Jumladan, F. Raximov “O‘zbekistonda prokuror nazorati O‘zbekiston Respublikasi nomidan davlat faoliyatini amalga oshiruvchi prokuratura organlarining o‘ziga xos faoliyat turidir. Prokuror nazorati davlat faoliyatining mustaqil, alohida maqomga ega o‘ziga xos ko‘rinishi”, deb qayd etgan. M. Rustambayev “Prokuror nazorati

davlat nomidan maxsus vakolatga ega mansabdor shaxs – prokurorlar tomonidan qonun buzilishi holatlarini o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, aybdor shaxslarni qonun bilan belgilangan tartibda javobgarlikka tortish bilan qonunlarni aniq va bir xilda bajarilishini ta’minlashga qaratilgan faoliyatdir”, deb ta’kidlaydi.

“Prokuror nazorati” hamda “qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi” tushunchalariga doir tahlillardan shunday to‘xtamga kelishimiz mumkinki, prokuror nazorati qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi tushunchasidan ko‘ra kengroq ma’noga ega. Boisi, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati prokuror tekshiruvidan boshqa prokuror nazorati tadbiri shakllari orqali ham amalga oshiriladi. Ushbu fikrimizni asoslash uchun xorij tajribasini ham keltirib o‘tish maqsadga muvofiq. Xususan, Qozog‘istonning 2022-yil 5-noyabrda qabul qilingan “Prokuratura to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonuni 17-moddasi birinchi qismida prokuror nazoratining shakllari va chegaralari ko‘rsatilgan. Unga ko‘ra, prokuror nazorati *qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi, qonuniylik holatini tahlil qilish, kuchga kirgan hujjatlarni baholash* orqali amalga oshiriladi. Mazkur tajribadan ham ko‘rinadiki, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi prokuror nazoratini amalga oshirishning faqat bir shakli hisoblanadi.

Prokuror nazorati qonun hujjatlarining ijrosi ustidan prokuror tekshiruvini o‘tkazish jarayonidir. Ushbu tekshiruv doirasida prokuror nazorati obyekt joyiga bevosita borib, tegishli hujjatlarni olish, ularni solishtirish, hujjatli taftish o‘tkazish, obyektni ko‘zdan kechirish, shuningdek, kuzatuv va so‘rovlar asosida qonunlarning ijrosini o‘rganish amalga oshiriladi.

Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tadbirlari shakllaridan yana biri monitoring. Monitoring vakolatli organ tomonidan shakllantirilgan ro‘yxat asosida, oldindan belgilangan aniq maqsadlarga ko‘ra qisqa yoki uzoq muddatga mo‘ljallangan, hujjatning ijrosi, ta’siri va qo‘llanish amaliyotidagi o‘rnini aniqlashga qaratilgan kuzatuv jarayonidir. Ushbu jarayon davomida maxsus texnika, texnologiyalar va usullar qo‘llanadi hamda olingan natijalar asosida xulosalar chiqarilib, tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Muhim jihati monitoring nazorat yoki tekshiruv emas, ya’ni monitoring o‘tkazuvchi boshqa subyektlarga nisbatan mustaqil ravishda huquqiy ta’sir choralarni qo‘llamaydi, qaror qabul qilmaydi.

Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tadbirining yana bir shakli “Axborot-tahlil faoliyatini yuritish”dir. Unda ma’lumotlar va axborotlarni yig‘ish, tahlil qilish, ular asosida xulosalar chiqarish va qarorlar qabul qilish jarayoni amalga oshiriladi. Bu faoliyatda quyidagilarni amalga oshirish mumkin bo‘ladi:

– axborot yig‘ish, ya’ni prokuratura organlarining asosiy vazifalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni turli manbalardan to‘plash faoliyati. Bu manbalar esa ommaviy axborot vositalari, ilmiy maqolalar, ijtimoiy tarmoqlar yoki maxsus

tadqiqotlar bo‘lishi mumkin;

– tahlil qilish, ya’ni birinchi bosqichda yig‘ilgan axborotni tahlil qilib, uning mazmunini o‘rganish, ularning sodir etilgan huquqbuzarliklar bilan aloqalarini aniqlash, assotsiatsiya qilish va tendensiyalarni kuzatish;

– xulosalar chiqarish esa tahlil qilingan ma’lumotlar asosida qarorlar chiqarish yoki prognozlar qilish sanaladi;

– Hisobot tayyorlash, ya’ni tahlil natijalari va xulosalarni yuqori turuvchi prokuraturaga taqdim etish uchun hisobot shaklida qayd etish.

Shu kabi “Nazorat qiluvchi organlarning qonun buzilishi to‘g‘risidagi materiallarini ko‘rib chiqish”ni ham qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tadbiri shakllaridan biri sifatida e’tirof etish mumkin. Mazkur nazorat tadbiri shaklida nazorat qiluvchi organlar (jumladan, moliyaviy nazorat organlari, soliq idoralari, sanitariya-epidemiologiya xizmatlari va b.) tomonidan aniqlangan qonun buzilishi holatlari yoki tekshiruv jarayonida to‘plangan ma’lumotlar prokuratura organlariga taqdim etiladi. Prokuratura esa ushbu materiallar asosida tahliliy ishlar olib boradi hamda qonuniy asosda tegishli tekshiruvlarni amalga oshiradi. Fikrimizcha, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi keltirilgan nazorat shakllari orasida eng universal hisoblanadi. U prokuratura organlari tomonidan muayyan qonun hujjatlarining aniqligi va bir xilda ijro etilishini ta’minlash maqsadida, qonunchilikda belgilangan asoslar, muddatlar hamda tartiblarga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu tekshiruv bevosita davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va boshqa idoralarda, tekshiruv predmeti xususiyatidan kelib chiqqan holda, asosiy prokuror nazorati shakli sifatida o‘tkaziladi. Bulardan kelib chiqib, O‘zbekistonning “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuniga “*Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tadbiri* monitoring o‘tkazish, *qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi*, axborot-tahlil faoliyatini yuritish, nazorat qiluvchi organlarning qonun buzilishi to‘g‘risidagi materiallarini ko‘rib chiqish shakllaridan iborat” tarzidagi huquqiy norma kiritilishi taklif qilinadi.

Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tadbirlari, xususan, prokuror tekshiruvlarini takomillashtirish masalasini muhokama etar ekanmiz, zamonaviy talablarga mos ravishda ushbu jarayonlarga sun’iy intellekt vositalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish zarurati alohida e’tiborga loyiqdir.

Raqamli ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va qayta ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida deyarli barcha sohalarda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish hamda uning huquqiy asoslarini yaratish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 358-qarori bilan *Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi* tasdiqlandi. Ushbu strategiya bilan sun’iy intellektga doir munosabatlarni

tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari bazasini shakllantirish hamda qonunchilik hujjatlarini xatlovdan o‘tkazish vazifasi belgilandi.

O‘zbekiston Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-farmoni bilan tasdiqlangan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da yetti ustuvor yo‘nalish va 100 ta maqsad belgilangan. Mazkur strategiyaning 2-yo‘nalishi, 17-maqsadi bevosita prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan. Unda qonuniylikni qat’iy ta’minlaydigan, ochiq va adolatli prokuratura tizimini shakllantirish, uning mustahkam huquqiy asoslarini yaratish hamda “Qonun – ustuvor, jazo – muqarrar” tamoyilini bosh mezon sifatida qaror toptirish vazifasi ilgari surilgan.

Prokuratura organlari faoliyatiga jumladan, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvini o‘tkazish jarayoniga sun’iy intellektni qo‘llashning muhim jihatlarini tahlil qilamiz.

Qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi jarayonida sun’iy intellektni qo‘llashning afzalliklari quyidagilarda namoyon bo‘lad:

*– **s**un’iy intellekt yordamida prokurorlar zarur ma’lumotlarni avtomatik tarzda to‘plashi, tartiblashi va tahlil qilishlari mumkin, bu esa tekshiruvlarning samaradorligini oshiradi;*

– tekshiruv rejasini shakllantirishda sun’iy intellektdan foydalanish maqsadga muvofiq. Tekshiruv o‘tkazishga sabablar kiritilganda avtomatik reja-savolnomani shakllantirib berish tizimini yo‘lga qo‘yish, vaqtni birmuncha tejashga ham yordam beradi;

– avval sodir etilgan qonunbuzilishi holatlari hamda o‘tkazilgan tekshiruv natijalaridan kelib chiqib, tekshiruv obyektlarini sun’iy intellekt yordamida “yashil”, “sariq” va “qizil” toifalarga ajratish. Bu orqali tekshiruvga eng moyil bo‘lgan obyektlarni aniqlash mumkin bo‘ladi;

– prokuror tekshiruvi qaysi qonun hujjati ijrosi ustidan amalga oshirilayotgan bo‘lsa, ushbu hujjatga daxldor barcha qonun hujjatlarini sun’iy intellektning shakllantirib berishi hamda hujjatlar o‘rtasidagi ziddiyatlarni tezda aniqlab berishi tizimini yo‘lga qo‘yish.

Bundan tashqari, prokuratura organlari faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlarini qo‘llash samaradorligini oshirishga qaratilgan taklifimizni ham berib o‘tmoqchimiz. Amalda qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlari “Prokuror nazorati” elektron tizimi orqali qayd etiladi. Ammo mazkur tizimda prokuror tekshiruvini o‘tkazishga asos bo‘lgan hujjatni yuklash mumkin bo‘lgan alohida qism mavjud emas. Asos tekshiruvni boshlashning eng muhim elementi bo‘lgani bois, albatta, tekshiruv asosi bo‘lgan hujjatlar tizimga alohida yuklanishi maqsadga muvofiq.

Shu bilan bir qatorda prokuror tekshirishlarini o‘tkazish davomida tekshiriluvchi obyekt mansabdor shaxslari, boshqa mas’ul shaxslar hamda jalb etilgan mutaxassislardan tushuntirishlar olinadi, so‘rovlar o‘tkaziladi. Mazkur so‘rovlarda shaxslar og‘zaki tushuntirishlar berayotganda uni avtomatik tarzda stenogramma qilib, matnga aylantirib beruvchi sun’iy intellekt

qurilmalaridan foydalanishi joizligini taklif qilamiz.

Sun'iy intellekt hamda uning qo'llanishi bo'yicha bir qator nazariyotchi va amaliyotchi olimlarning fikrlarini ham keltiramiz.

Yuridik fanlar doktori, professor M. Mamasiddiqov ta'kidlaganidek, "Sun'iy intellekt, jumladan, "ChatGPT" tadqiqotchiga yordamchi vosita bo'lishi mumkin, ammo asosiy ishni insonning o'zi qilishi lozim".

Mazkur fikrdan kelib chiqib statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratsak, "ChatGPT" kuniga 10 milliondan ortiq so'rovni qabul qiladi va bu ko'rsatkich har oyda oshib bormoqda. "ChatGPT" dunyoning 162 mamlakatida mavjud va hozirda 162 mamlakatning barchasi aynan "ChatGPT API"ga kirishni ta'minlaydi. Tashkil etilganidan beri u ikki oy ichida 100 milliondan ortiq foydalanuvchini o'zida to'pladi". Ushbu ma'lumotlar mazkur sun'iy intellekt tizimi naqadar ommalashib borayotganini ko'rsatadi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, undan olingan ma'lumotlarni foydalanuvchilar jiddiy tekshirib ko'rishi lozim. Misol uchun, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvini amalga oshirayotgan subyekt ma'lumotlar yig'ishda "ChatGPT" imkoniyatlaridan foydalanayapti deylik. Bunday holatda tekshiruv o'tkazuvchi mazkur ma'lumotlarni boshqa ishonchli manbalar bilan ham solishtirib ko'rishi, uning to'g'ri yoki noto'g'ri ekaniga ishonchi komil bo'lishi joiz. Sun'iy intellekt tizimlari ham insonni chalkashtiruvchi, noaniq yoki noto'g'ri ma'lumotlar berishdan xoli emas. Vaholanki, prokuror tekshiruvi natijasida qonunbuzilish holatlari aniqlanishi, aybdor shaxslar esa tegishli tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin. Mazkur toifadagi jarayonlarda esa xatoga yo'l qo'yish, yolg'on ma'lumotlarga tayanish mutlaqo mumkin emas. Bu omillar esa tekshiruv o'tkazuvchini sergaklikka chorlashi zarur.

Jumladan, tahlilchi, Mohana Das "Sun'iy intellekt hech qachon haqiqiy aql bo'la olmaydi" maqolasida ta'kidlanganidek, "sun'iy intellekt hali-hamon xatolarga moyil va ba'zi holatlarda uning algoritmlari zarar keltiradigan noto'g'ri qarorlar qabul qilishi mumkin. Bu, ayniqsa, tibbiyot, xavfsizlik va sud sohalarida juda muhim ahamiyatga ega. Bu sohalarda qaror qabul qilish yuqori darajadagi mas'uliyat va ongililikni talab qiladi".

Shu bilan birga Haydelberg universiteti (Germaniya) professori Barco Ji Yu "Aql-idrok tabiati" maqolasida intellektning tabiatini odamlar va hayvonlarga atrofdagi olamdagi hodisalarni tushunish, modellashtirish va bashorat qilish imkonini beruvchi kognitiv funksiyalar to'plami sifatida tahlil qiladi.

Sun'iy intellekt turli jarayonlarni kompyuter algoritmlari va mashinalarni o'rganish yordamida qayta ishlab chiqarishga urinishdir. "Techtarget Enterprise AI" sayt muharriri Lev Kreyg ta'riflaganidek, "Sun'iy intellekt tizimi tashqi ma'lumotlarni his qilish, ushbu ma'lumotlarni o'rganish va odatda inson aql-zakovati talab qiladigan vazifalarni bajarish qobiliyatidir".

Shu bilan bir qatorda qonunlarning ijro etilishida hamda bu jarayonni nazorat qilish va tekshirishda sun'iy intellektning

qo‘llanishi bo‘yicha ilg‘or xorij tajribalarini keltirib o‘tish darkor, deb hisoblaymiz.

AQShda *“AI-powered Auditing Systems (AI asosidagi auditi tizimlari)”* orqali davlat xarajatlarini va qonun ijrosini tahlil qilishda sun’iy intellektni ishlatish orqali moliyaviy hujjatlarni, qarorlarni va tranzaksiyalarni tezda tekshirish imkoni mavjud.

Buyuk Britaniyada *“AI-based Audit Programs”* dasturi budjetning noaniqliklarini, budjetga kiritiladigan o‘zgarishlarni va moliyaviy resurslarning noto‘g‘ri sarflanishini, budjet qonunchiligining buzilishini aniqlashda yordam beradigan muhim zamonaviy vosita sanaladi.

Singapurda esa *“AI-powered Governance Audits”* nomli sun’iy intellekt tizimi yordamida hukumat tashkilotlari yirik moliyaviy auditlar va qonun ijrosini nazorat qilish jarayonlarini optimallashtirishmoqda. *Singapur Audit Office* (Singapur audit boshqarmasi) sun’iy intellektni davlat budjetini, moliyaviy hisobotlarni va soliq to‘lovchilarni nazorat qilishda qo‘llaydi. Singapurda ham *qonun ijrosini tekshirish uchun sun’iy intellektni ishlatishning afzalliklariga oxirgi yillarda alohida ahamiyat berilmoqda*. Sababi ushbu texnologiyalar yordamida davlat amalga oshiradigan auditlar hamda nazorat tezroq va samarali bo‘ladi.

Janubiy Koreyada esa “*AI for Administrative Oversight*” sun’iy intellect tizimidan hukumat adminstrativ nazoratni samarali qilish uchun foydalanadi. Masalan, *hukumat chiqargan qarorlarning amalga oshirilishini* va davlat mablag‘larining to‘g‘ri sarflanishini tahlil qilishda sun’iy intellekt yordam beradi. Shuningdek, Janubiy Koreyada kompaniyalar va davlat organlarining *qonunlarga mosligini nazorat qilish uchun ham sun’iy intellekt dasturlari qo‘llanadi*. Bu texnologiyalar barcha hukumat organlarining qonun ijrosini doimiy kuzatib borishda yordam beradi.

Yuqoridagilardan quyidagi **xulosaga** kelish mumkin.

Birinchidan, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati tadbirlarining tasnifi hamda qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvi jarayoniga nisbatan yuqorida keltirilganidek ilmiy-nazariy ta’riflarni O‘zbekistonning “Prokuratura to‘g‘risida”gi qonuniga kiritish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, qonunlar ijrosi ustidan prokuror tekshiruvlarini o‘tkazish jarayoniga sun’iy intellektni joriy etish tekshiruvlarning tez va sifatli amalga oshirilishiga, qonunbuzilish holatlariga operativ tarzda munosabat bildirishga hamda tegishli hujjatlarni qisqa muddatlarda shakllantirishga ijobiy hissa qo‘shadi. Ammo shuni ham yodda tutish zarurki, tekshiruv o‘tkazuvchi subyektlar sun’iy intellekt yordamida olingan ma’lumotlarning qanchalik to‘g‘riligi va haqiqatga yaqinligini, albatta, tekshirishlari zarur. Zero, tekshiruv o‘tkazish jarayonida yuzaga keladigan har qanday xatolik hamda jiddiy kamchilik uchun mas’uliyat va javobgarlik insonlar zimmasida qolaveradi.